



ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI JOQARI BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRLOGI
BERDAQ ATÍNDAGÍ QARAQALPAQ MÁMLEKETLIK
UNIVERSITETI
SHET TILLERI FAKULTETI

“LINGVISTIKA HÁM SHET TILLERDI OQITIWDIŇ ÁHMIYETLI
MÁSELELERI: JETISKENLIKLER HÁM INNOVACIYALAR”
atamasındaǵı xalıqaralıq ilimiy-ámeliy konferenciya
MATERIALLARI

“LINGVISTIKA VA XORIJIY TILLARNI O’QITISHNING
DOLZARB MASALALARI: *yutuqlar va innovatsiyalar*”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI

МАТЕРИАЛЫ

международной научно-практической конференции
«АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЛИНГВИСТИКИ И
ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ:
ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ»

PROCEEDINGS

*of the international scientific and practical conference
entitled “TOPICAL ISSUES OF LINGUISTICS AND TEACHING
FOREIGN LANGUAGES: ACHIEVEMENTS AND
INNOVATIONS”*



7. Musaev A.A., Causative semantics in English and Karakalpak. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, ISSN: 2249-7315, Vol. 12, Issue 05, May 2022. DOI: 10.5958/2249-7315.2022.00250.7

8. Musaev A.A., Emotional-expressive causative verbs in English and Karakalpak. Science and innovation // International scientific journal. 2022, №4, ISSN: 2181-3337. – P. 678-683.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6985369>

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI BOTANIK TERMINLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI

*Bahriddinova Yulduzxon Bahriddin qizi,
doktorant, Termiz davlat universiteti*

Annotatsiya: Hozirgi izchillik bilan rivojlanayotgan zamonda jamiyatning har bir sohasida o'sish va yangi o'zgarishlar jarayoni davom etmoqda. Xususan botanik terminlar va ularning o'rganilishi ham ushbu davrning ajralmas qismidir. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi botanik terminlarning paydo bo'lishi, tadqiq etilishi va binar nomlanish etimologiyasi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: botanik terminlar, binar nomlanish, etimologik tahlil, leksikografiya, elektron lug'atlar.

Insoniyat o'simlik dunyosiga bog'liqligini juda erta angladi. Qadim zamonlardan beri o'simliklar odamlarga oziq-ovqat, kiyim-kechak, boshpana, dori-darmon manbai bo'lib xizmat qilgan. Jamiyat rivojlanishi bilan uning talablarini kengaytirish jarayonida bilimlar to'plangan va inson o'simliklarni etishtirishni, yangi navlarni ko'paytirishni o'rgangan, o'zi uchun oziq-ovqat, dorivor va ziravor o'simliklarni tanlashni boshlagan. O'simliklar haqidagi birinchi yozma risolalar "botanikaning otasi" deb nom olgan yunon olimi, Aristotelning shogirdi, mill. avv. 370-285-yillarda yashab o'tgan Teofrastning o'simliklar haqidagi boy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan "O'simliklar tarixi" (*Historia plantarum*) asari hisoblanadi.⁵ U 500 dan ortiq o'simlik turlarini tavsiflab, ularni hayot shakllari asosida tasniflashga harakat qilgan. Teofrastning botanika asarlarini qishloq xo'jaligi amaliyotchilari, tibbiyot va qadimgi dunyo olimlarining ushbu sohadagi asarlari haqidagi yagona bilimlar tizimiga asos sifatida qarash mumkin. Teofrast botanikaning mustaqil fan sifatida asoschisi bo'lgan va u o'simliklarning iqtisodiyot va tibbiyotda qo'llanilishini tavsiflash bilan bir qatorda nazariy masalalarni ham ko'rib chiqqan. Tilshunos E.M. Gadjiyevaning ma'lumotlariga ko'ra u hatto alohida fitogeografik zonalarini ajratib olishga va ularning har biriga xos bo'lgan o'simliklarni ko'rsatishga harakat qildi. Shunday qilib Teofrast tog' o'simliklari, vodiylar va boshqalarning o'ziga xosligini qayd etdi, ammo Teofrastning fitogeografik g'oyalari na qadimgi Rim olimlari, na o'rta asr olimlari tomonidan yanada rivojlantirilmagan.⁶ Botanika fani va unda qo'llaniladigan terminlarning paydo bo'lishi tarixining burilish nuqtasi XV asr oxirida, ya'ni buyuk geografik kashfiyotlar davrida yuz berdi. Chunki o'sha paytda bir mamlakatdan boshqa mamlakatga o'simliklarning yangi turlari olib kelinishi yoki olib borilishi,

⁵ Базилевская Н. А., Белоконов И. П., Щербакова А. А. Краткая история ботаники / МОИП. Т. XXXI. Отд. биол. Секц. ботаники. — М.: Наука, 1968. — С. 13

⁶ Гаджиева Э.М. Основы ботанической терминологии. [электрон ресурс] <https://anru.edu.az/storage/files/18/%C9%99c2a%C5%9F%C4%B1%C4%B1q%20botanika1.pdf>

yangi ochilgan yerlardagi o'simliklar bilan tanishish va ularni mahalliyashtirish kabi ishlar jadal rivojlandi. XVI asr o'rtalarida gerbarizatsiya boshlandi. Lekin birinchi botanika bog'lari ancha oldin ya'ni IV asrdan G'arbiy Yevropada tashkil etilgan va ularning dastlabki namunalari monastir bog'lari bo'lib, unda dorivor o'simliklar yetishtirilgan. Undan keyin XIV asrda paydo bo'lgan Italiyaning Salerno shahrida va Venetsiyada barpo etildi.⁷ Bu davrda botanika terminologiyasining taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan olim Karl Linney edi. U shved shifokori va tabiatshunosi, o'simlik va hayvonot dunyosining yagona tizimining yaratuvchisi. U zamonaviy binominal nomenklaturaning asoslarini yaratdi.⁸ Ungacha yangi topilgan yoki kashf etilgan o'simliklarga kashf qilgan yoki mashxur shaxslarning nomi qo'yilgan va bu fanda "polinom nomlari" deyiladi. Misol uchun "*plueria*" o'simligini botanik Charls Pluer sharafiga nomlashgan.⁹ Lekin bunday nomlarning odamlar tomonidan eslab qolinishi biroz murakkabliklarga sabab bo'lgan. Karl Linney sakkiz mingga yaqin yangi o'simlik turlari va ko'plab hayvon turlarini tavsiflab bergan va ulardan bir yarim mingtasi ilgari fanga ma'lum bo'lmagan. U o'simlik shakllarini tavsiflashda ishlatilishi kerak bo'lgan botanika atamallari to'plamini ishlab chiqdi va shu bilan ushbu tavsiflarni birlashtirish uchun asos yaratdi. Unga ko'ra o'simlik nomlari qisqa va aniq bo'lishi kerak. K. Linney tomonidan doimiy foydalanishga kiritilgan ikkilik (binar) botanika nomlari ushbu shartga eng mos keladi.¹⁰ Karl Linney ikkilik (binar) ya'ni umumiy va maxsus tur nomenklaturani amaliyotga kiritdi va botanika nomlari taksonga nomenklatura turi yordamida beriladi. Binomial yoki binar nomenklatura biologik sistematikada ikki so'zli nom (binomen) yordamida turlarni belgilashning qabul qilingan usuli bo'lib, u ikkita nom yoki ismlarning birikmasidan iborat: botanika terminologiyasiga ko'ra jins nomi va tur epitetiga ajratiladi. Bu nomlarni berishda esa Karl Linney nazariyasiga ko'ra o'simliklarning nomlari ko'plab omillar va sabablarga ko'ra berilgan. Unga ko'ra:

- ularning o'sadigan joyidan;
- o'sishning ekologik sharoitlaridan;
- morfologik xususiyatlardan (tuzilishi, tashqi ko'rinishi);
- rang, ta'm, hid kabi o'simlik xususiyatlaridan;
- boshqa o'simliklar yoki narsalarga o'xshashlikdan;
- terapevtik ta'sirdan;
- o'simlik tomonidan taqdim etilgan toksik ta'sirdan;
- ularni birinchi marta kashf etgan va tavsiflagan olimlar sharafiga.¹¹

Ma'lumotlar tasdig'i sifatida esa bir nechta misollarni ko'rishimiz mumkin:

Brassica nigra - qora xantal, odatda ziravor sifatida ishlatiladigan to'q jigarrangdan qora ranggacha bo'lgan urug'lari uchun yetishtiriladigan yillik o'simlik. Uning vatani Shimoliy Afrikaning tropik mintaqalari, Yevropaning mo'tadil mintaqalari va Osiyoning ba'zi hududlari.

⁷ <https://mke.su/doc/BOTANICHESKIY%20SAD.html>

⁸ https://www.historymed.ru/encyclopedia/doctors/index.php?ELEMENT_ID=4884

⁹ Кнежевич Е. Плюмерия (Plumeria) или Франжипани (Frangipani). 2010.

<https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9F%D0%BB%D1%8E%D0%BC%D0%B5%D1%80%D0%B8%D1%8F>

¹⁰ Strickland H. E., Henslow J. S., John Philipps, Shuckard W. E., John Richardson, Waterhouse G. R., Richard Owen, Yarrell W., Leonard Jenyns, Darwin C. Broderip W. J., Westwood J. O. «Report of a Committee appointed „to consider of the rules by which the Nomenclature of Zoology may be established on a uniform and permanent basis.“» Report on the Twelfth Meeting of the British Association for the Advancement of Science; held at Manchester in June 1842. London [electronic source] https://ru.wikipedia.org/wiki/Биологическая_номенклатура#cite_ref-10

¹¹ Гаджиева Э.М. Основы ботанической терминологии. [электрон ресурс] <https://amu.edu.az/storage/files/18/%C9%99c2a%55%9F%C4%B1%C4%B1q%20botanikas1.pdf>

Bu tur rasman Karl Kox tomonidan 1833-yilda "Deutschlands Flora" asarida tavsiflangan. Lotincha binar nomi *nigra* qora so'zidan olingan. Bu nom qora urug'lar bilan bog'liqdir.¹²

Tabiiy o'simliklarni o'rganish O'rta Osiyo mintaqasida ham qadim zamonlardan boshlangan. O'rta Osiyo, shu jumladan hozirgi O'zbekiston o'simliklariga havolalar bundan bir necha yuz yil avval yashagan mashhur allomalarimiz asarlarida uchraydi. Insonlar tomonidan dehqonchilik asosini tashkil qiluvchi o'simliklar va madaniy o'simliklarni o'stirish bir necha ming yil avval amalga oshirilgan. Zardo'shtiylik dinining ilohiy kitobi "Avesto"da organizmga ta'sir etuvchi 1000 dan ortiq o'simliklarning nomlari va ta'sir etish xususiyatlari haqida namunalar keltirilgan.¹³ Undan so'ng buyuk allomalarimizdan Abu Rayhon Beruniy (973 - 1048) tibbiyotga oid "Kitob as-Saydana fit-tibb" risolasida mamlakatimizda o'sadigan ko'plab dorivor o'simliklar haqida ma'lumot bergan. Kitobda 880 ta o'simlik, 107 ta ma'daniy moddalar, 101 ta hayvon mahsulotlari va a'zolari hamda 30 ta murakkab tarkibli dorilar haqidagi ma'lumotlar jamlangan.¹⁴ U o'simlik nomlarini keltirar ekan, ularning har biriga alohida alohida sharh berib o'tgan. Bunga bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin:

Abujahl tarvuzi - qovoqdoshlar oilasiga mansub bir yillik o't, o'simlik. Barglari yirik, poyasida ketma-ket joylashgan. Iyun-iyul oylarida gullaydi. Gullari bir uyli. Mevasi iyul-avgust oylarida pishadi. Ildizining tarkibida glikozidlar bor, smola, polisaxaridlari ham bor. Ildizidan tayyorlanadigan qiyom akofit preparati tayyorlashda ishlatiladi, u og'riq qoldirish, qon to'xtatish xususiyatiga ega.¹⁵

Botanik terminlarni har jihatdan o'rganish so'nggi yillarda ham izchil davom etmoqda. Xususan, O'zbek tili botanik terminologiyasi haqida ba'zi ma'lumotlar T. Nugmanov A. Kurbanov, Y. Ishonqulov, G. Ne'matova, N. Pazlitdinova, M. M. Xoshimxo'jaeva, B. Mirsanov, O. O. Bobokalonov, K. F. Sultonova, X. I. Majidova, Y. Saidovning ishlarida ko'zga tashlanadi va albatta yuqorida nomlari keltirib o'tilgan tilshunoslarning xizmatlari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Terminlar va o'ziga xos terminologiyani o'rganishga oid masalalar zamonaviy tilshunoslikning qiziqishini izchil kuchaytiradi. Amaldagi bilimlar tizimida va insonning barcha amaliy harakatlarida terminologiyaning o'ziga xos funksiyasi bunday qiziqishning mavjudligini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Bobokalonov, O. O. Fransuz va o'zbek tillari shifobaxsh o'simliklar terminosistemasining lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari. Filol. fan. fals. dok. (PhD)... diss. avtoref. – Buxoro, 2022.
2. Mirsanov B. O'zbek tili terminologiyasida ikkilamchi nomlashlar va ularning motivlashuvi (o'zbek tili zoonimlari va fitonimlari misolida). Filol. fan. fals. dok. (PhD)... diss. avtoref. – Samarqand, 2019.
3. Majidova X. I. From the history of the study of botanical terminology in the Turcic languages. International conference on developments in education. hosted from Toronto, Canada, 2022.
4. Pazlitdinova N. O'zbek tili fitonimlarining leksik-semantik xususiyatlari. Filol. fan. fals. dok. (PhD)... diss. avtoref. Farg'ona, 2018.

¹² https://uz.wikipedia.org/wiki/Brassica_nigra

¹³ Belolipov I.V., Arabova N.Z., Axmedov X., Buxorov K.X., Islamov A.M., Abdurasulov Sh.E.. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi. -T.: "Fan va leksnologiya", 2018. – B. 9.

¹⁴ <https://ovina.uz/uz/article/2064> professor S. Karimova maqolasiga asosan.

¹⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/Abujahl_tarvuzi

5. Sultonova K.F. O'zbek botanika terminologiyasining tarixiy taraqqiyoti. International scientific journal «Modern Science And Research» Volume 2 / ISSUE 6 / UIF:8.2 / Modernscience.uz. ISSN: 2181-3906 2023.
6. Saidov Y. O'zbek tili fitonimik leksikasining shakllanishi, manbalari va taraqqiyoti. Innovative achievement in science. 2023.

COMPARATIVE ANALYSIS OF LINGUACULTURAL FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK FAIRYTALES (BASED ON THE PLOTS OF "TOM THUMB" AND "NOHATPOLVON")

*PhD Bahtiyarov Mukhtorjon Yakubovich,
UzSWLU Department of practical translation
Tuymaeva Khurshidabonu Khurramovna,*

MA student of UzSWLU Comparative linguistics and linguistic translation study

ABSTRACT: *The paper examines linguacultural characteristics of English and Uzbek fairytales. The relevance of the study is determined by great interest of linguistic science to the issues of national and cultural specificity of folk texts, which is caused by peculiarities of historical development, beliefs, traditions and customs of people. The objective of the study is to reveal traditional and cultural characteristics of the English and Uzbek tales by means of their linguacultural analysis which is based on the plots of the similar fairytales in two languages. This paper is divided into two sections. The first section examines linguacultural features of the literary tales in two languages. They are characterised by the variety of lexical and stylistic means and a diversity of characters and plots. The second section gives an overview of differences and similarities of fairytales of two different western and eastern cultures. The results of the investigation can be effectively used for a further profound comparative analysis of sociolinguistic and linguacultural features of English and Uzbek tales.*

Keywords: *linguocultural analysis; worldview; folk tales; literary tales; stylistic means; grammar; adaptation.*

In the process of globalisation that inevitably leads to mixing up cultures, it is of vital importance to save national and cultural identity. Not to disappear in a melting pot of nationalities, one should know more about his/her roots. The wisdom of people, their world outlook, traditions, and beliefs are expressed in tales. Fairytales stimulate imagination, creativity, and critical thinking skills, while also providing comfort, escapism, and teaching empathy. The moral lessons and values portrayed in fairytales can be applied to real-life situations, making them valuable tools for personal growth and development. We have also revealed male gender preference in folk tales. By incorporating fairytales into reading habits, readers can experience the transformative power of these timeless stories. Thus Albert Einstein once said "If you want your children to be intelligent, read them fairy tales. If you want them to be more intelligent, read them more fairy tales." Also, fairy tales as a part of the folk narrative genre system, always serve for the development of literature, cultural exchanges, and importantly play a great role in the good raising of the young generations. Learning fairy tales from the scientific point of view is as important as its spirituality and ethical values. Comparatives studies can give us more access to learn the texts of fairy tales for which Uzbek and English nations, like others, have their own cultural and scientific aspects.